O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2022 - yil 20 - may 199-9-0-Q/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

Xovos tumani Farhod massivi “Obod turmush” MFY hududidan davlat va jamoat ehtiyoji uchun 100 o‘rinli umumta’lim maktabi qurish uchun tuman hokimligi zaxira yer fondidagi yerlardan doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi “Jahon bankining xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4898-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5- va 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 10- va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Xovos tumani hokimining 2022-yil 13-yanvardagi 4/04-18-sonli xati, Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasining 2021-yil 10-dekabrdagi 01/1576-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatning tegishli tashkilot, korxonalarining ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tumani Farhod massivi “Obod turmush” MFY hududining aholi punkti chegarasi doirasida 3120q-konturning tuman hokimligi zaxira yer fondidagi bo‘sh turgan 50 m x 120 m o‘lchamda jami 0,6 gektar yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyoji uchun 100 o‘rinli umumta’lim maktabi qurish uchun Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasiga doimiy foydalanishga ajratib berilsin.

3. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi (N.Xudoynazarov)ga:

Sirdaryo viloyati “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DUKning, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasining, Sirdaryo viloyati Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazining, Sirdaryo

viloyati Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasining, “Hududgaz Sirdaryo” gaz ta’minoti filiali va Sirdaryo viloyati IIB YHXBning xulosalaridagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar hamda talab va tavsiyalarni bajarish shuningdek, ajratilgan yer uchastkani belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (N.Ismailov) viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov va A.Xojimatov zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **G'.Mirzayev**